

Ta'tilimiz ko'ngilli o'tmoqda



www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

2011-yil
10-yanvar
№:2
(66803)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092



Fazliddin Shoyodgorov olgan surat

«ONAJONIM TABIAT» INSHOLAR TANLOVIGA MARHAMAT!

Mustaqil O'zbekiston bizning muqaddas Vatanimiz, barchamizning umumiy uyimiz. Yurtimiz tabiati, atrof-muhiti, ekologik holatini yaxshilash, atmosfera, yer va suv resurslarini zararli chiqindilardan muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ibratli ishlarda o'quvchilar faolligini oshirish, qo'yingchi, ekologik ta'lim-tarbiyani maktab partasidan oq shakllantirish, yosh avlodning murg'ak qalbida ona tabiatga mehr, muhabbat uyg'otish maqsadida:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «Kamalak» Respublika bolalar tashkiloti, O'zbekiston ekologik harakati hamda O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi «Tong yulduzi» hamkorligida «Onajonim tabiat» mavzuida insholar tanlovini o'tkazadi.

Tanlov shartlari quyidagilardan iborat:

1. Maktab qoshida faoliyat ko'rsatayotgan «Yosh tabiatshunoslar» to'garagi faoliyati haqida ma'lumot;
2. O'zlari yashab turgan mahalla, qishloq, tuman, shahar tabiati, ekologik muammolari hamda ularni bartaraf qilishga oid fikr-mulohazalar;
3. Tabiat mavzuida insho yozib yuborishlari lozim. (Suratlar, rasmlar ilova qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lardi).

Insholar shu yil 15-mayga qadar «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatiga yuborilishi kerak.

Manzilibizni eslatib o'tamiz:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129, e-mail: tong1924@bk.ru
Telefonlarimiz: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks: (99871) 244-38-10
«Onajonim tabiat» insholar tanloviga, deb yozing.

Shayxontohur
tumanidagi
85-maktab o'quvchilari
«Bolalar shaharchasi»da

3-bet

Tanlov 2011-yil, 5-iyun
«Butunjahon atrof-muhiti kuni»da yakunlanadi.
G'oliblar Diplomlar hamda qimmatbaho
sovg'alar bilan taqdirlanadilar.

OLIIY SHARAF

14-yanvar –
Vatan
himoyachilari
kuni

«Assalomu alaykum qadri askar
akajon! Vatan oldidagi muqaddas
yigillik burchingizni o'tab,
xizmatlar bilan hormay-tolmay
yuribsizmi?...»

Maktubga ko'z
yugurtirib, biror
bolakayning
xizmatdagi akasiga
yo'llagan xatidan
keltirilgan parcha
bo'lsa kerak, deb
o'ylayotgandirsiz?
Xulosa chiqarishga
biroz oshiqmang.
Quyidagi maqolani
o'qib, hammasini
bilib olasiz.

Barcha jabhada bo'lgani
kabi Qurolli Kuchlarimizda
ham bosqichma-bosqich o't-
kazilayotgan islohotlar sabab
harbiy hayotga kirib kelayotgan
yangiliklardan Siz o'quvchi-
larning ham boxabar bo'lib bora-
yotganingiz quvonarli holdir. Bu
esa bo'lajak askarlarimiz harbiy

xizmatga o'zlarini hozirdanoq
ham ruhan, ham jismonan tayyor-
lab borishlariga zamin yaratadi.

Toshkent shahar, Shayxontohur
tumanidagi 186-maktab o'quv-
chilari orasida harbiy vatanparvarlik
tarbiyasini shakllantirish, sportning
texnik va amaliy turlarini rivojlantirishga
alohida e'tibor berilmoqda. Sinf xonalari
va o'quv zallari zarur zamonaviy texnik
vositalar va ko'rgazmali qurollar bilan
jihozlangan bo'lib, «Vatan himoyasi –
oliy sharaf!», «O'talar jasorati –
farzandlarga meros», «Xalq va armiya
yakdil» kabi stend va fotoko'rgazmalar
yaqqol ko'zga tashlanadi.

Vatan himoyasini oliy sharaf deb
bilgan bo'lajak askarlar o'z mahoratla-
rini oshira borib, milliy kurash, arqon
tortish, turkida tortilish, yugurish kabi
sport turlari bilan muntazam shug'ul-
lanib, musobaqalarda qatnashib kelmoq-
dalar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari
orasida Prezidentimizning «Milliy
armiyamiz – mustaqilligimizning, tinch
va osoyishta hayotimizning mustahkam
kafolatidir» nomli risolasi asosida
ma'ruzalar, davra suhbatlari o'tkazib
turiladi. Tumanda yashovchi urush va

mehnat faxriylari, harbiy qism ofitser va
askarlari o'quvchilar davrasida tez-tez
mehmonda bo'lib turishadi. Shunisi
quvonarliki, shu kungacha maktabning
sobiq o'quvchilaridan 20 nafari
respublika Oliy harbiy bilim yurtlarini
tamomlab, turli harbiy qismlarda xizmat
qilmoqdalar.

Bu borada maktabning kichkintoylari
ham bo'sh kelishmayapti. 2-«B» va 3-
«A» sinf o'quvchilari vatanparvarlik
mavzusidagi turli adabiyotlar, foto surat-
lar, marka va o'tkritkalar to'plash bora-
sida o'ziga xos musobaqani avj oldirib
yuborishgan. Samariddin Sadriddinov,
Malika Sultonova, Muhammad Ismoilov
kabi kichkintoylar musobaqada peshqa-
damlik qilishyapti. Ularning sa'y-hara-
katlari bilan sinfda ajoyib kolleksiya
tashkil qilindi. Shuningdek, bolalar
harbiy xizmatdagi askar akalari bilan
yozishmalar olib borishadi.

Mazkur bilim dargohidagi bunday
ezgu ishlarga Mahmuda Umarova
hamda Shahnoza Toshmuhamedova
kabi tajribali, fidoyi ustozlar bosh-qosh
bo'lib kelayotganliklarini alohida e'tirof
etish lozim.

Abdulla SAIDOV

YURTGA POSBON

Har faslning o'z ziynati, fazilati, shukuhli kunlari
bo'ladi. Kumush qish ham bizga ko'plab bayramlarni,
shodiyonalarni olib keladi. Kuni kecha Yangi yil
tantanalarini bayram qilgan bo'lsak, ayni kunlarda
«Vatan himoyachilari kuni»ni nishonlashga qizg'in
hozirlik ko'ryapmiz. Maktabimizda bunday sanalarga
bag'ishlab tadbir va tantanalar o'tkazish yaxshi
an'anaga aylangan. Ularda Temur Omonov,
Mahliyo Sultonova, Lobar O'tkirova, Shohboz
Boqiyev, Begzod Sobirov kabi maktabimizning
a'lochi va jamoatchi o'quvchilari faollik
ko'rsatishadi.

Biz ham sinfimiz bilan ushbu bayramga
puxta tayyorgarlik ko'ryapmiz. Chunki Vatan
posboni bo'lish nechog'li sharaffli. Vatanni
sevish, uni avaylab-ardoqlash biz
yoshlarning muqaddas burchimizdir.



Zero, shoirimiz Oybek yozganidek:

Vatanni sev, tuprog'ini o'p,
Har qarichi muqaddas bizga.
Cho'lidagi hatto quruq cho'p,
Jondan yaqin yuragimizga.

Har gal yuqoridagi misralarni o'qiganimda
dilimda allanechuk faxr va iftixor tuyg'ulari
jo'sh uradi va beixtiyor, katta bo'lsam men
ham Vatan himoyachisi bo'laman, deya o'z-
o'zimga so'z beraman!

Nodir XUDOYBERDIYEV,
Qashqadaryo viloyati,
Qarshi tumanidagi
24-maktabning 8-sinf o'quvchisi

BO'LAMAN!

Kumush qishning ziynati
Zavq beradi dillarga.
Ayoz bobo entikib,
Qor sochadi gullarga.

Qashqadaryo viloyati, Qamashi
tumanida yashovchi Dilrabo Voizga
tegishli ushbu misralarni o'qib, iliq
taassurot uyg'onadi qalbingizda.
She'riyatga ko'ngil qo'yan bu
singlimizning bizga yo'llagan xati va
sovg'a sifatida yuborgan kitobidan
benihoya xursand bo'ldik. Kumush
qish hatto gullar sochsin oyoqlaringiz
ostiga!

Doimiy muxlisimiz – shahrisabzlik
Hilola Valiyevadan ham maktub oldik.

MENGA XAT KELDI

«Qorbobo sovg'a berib, xushnud etdi
bizni» deb yozibdi u. Hayot bizni doimo
shunday siylab tursin!

Koson tumanidan Dildora Boy-
mo'minova yozibdilar. «Yoshim 19
da. Oliy o'quv yurtiga o'qishga
kirish uchun tayyorlanayapman.
She'rlarimni «Tong yulduzi»da
chiqishini xohlayman».

Bu yil talaba bo'lish sizga nasib
etsin. She'rlardan yana yuboring!

Muborak tumanidagi 3-umum-
ta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi
Maftuna Karimova ham she'riyatga
nihoyatda qiziqishini yozgan. Niyat

yaxshi, singlim! Yana yozing,
ustozingizga ko'rsatib, bizga
yuboring.

Birgina Qashqadaryo viloyatidan
bir kunda 4 ta xat olganimizdan
minnatdormiz.

Andijon shahridan Mohiro'yo
Biloliddinova, Samarqand viloyati,
Kattaqo'rg'on tumanidagi 44-mak-
tabning 9-sinf o'quvchisi Mahliyo
Norberdiyevaning she'riy maktub-
larini oldik.

Barcha tabriklar uchun rahmat!
Shoir, shoira bo'laman, deya yaxshi
niyat qilgan, aziz muxlislarimiz, aslo



bo'shshamang, ko'proq o'qing.
Albatta, bir kun niyatingizga yetasiz.
Sizga hurmat bilan sevimli «Tong
yulduzi»ngiz.

7-12 yoshlilar sahifasi

Poytaxtimizning Mustaqillik maydonidagi «Bolalar shaharchasi»ga borgan kunimiz, intiqib kutganimiz oppoq qor gupillab yog'ib turgan edi. Qorning momiq parchalari bolajonlarning bosh kiyimlariga, kipriklariga qo'ndi. Bugungi qor ularga Yangi yilning haqiqiy sovg'asi bo'ldi.

Yangi yilni men qanday kutib oldim? Bu savolga javobni «shaharcha»da sayr qilib yurgan beg'ubor bolajonlar Qorbobo va Qorqizga aytib turishgan ekan. Qalbimiz quvonchga, hayrat va hayajonga limmo-lim to'lib, ularlarning quvonchlariga sherik bo'ldik.



SHODLIKLAR MANZARASI

– Men Samarqand viloyati, Bulung'ur tumanidagi 2-maktabning 5-«V» sinf o'quvchisiman, – deydi Abdulaziz ABDUVOHIDOV. – Toshkentga birinchi marotaba kelishim. Go'zal poytaxtni oynayi jahonda ko'p ko'rgan bo'lsam-da, bugun hayajonimni sira yashirolmayapman. Ulkan binolar, ko'zni qamashtiruvchi rang-barang chiroqlar, keng ko'chalar, bolalar shaharchasidagi shodliklar manzarasi hayratimni oshirgandan oshirdi. Bu hayrat yil bo'yi menga hamroh bo'lsa, ajabmas.

– Nabiralirim juda ko'p. Ular orasidan Abdulazizni tanlab, poytaxtni aylantirgani olib keldim. Chunki u odob-u ahloqi, yaxshi baholari, mehnatsevarligi bilan bunga munosib bo'ldi, – deydi Abduvohid ota.



ZAVQLI TA'TIL

«Bolalar shaharchasi»ga o'z o'quvchilarini sayrga olib chiqqan ustozlarni ham uchratdik. Ulardan biri – Shayxontohur tumanidagi 85-maktabning 3-«A» sinf o'qituvchisi Munira opa Usmonovani suhbatga tortdik:

– Yangi yilni barcha o'quvchilarim juda yaxshi ko'rishadi. Ayniqsa, qishki ta'til ularni yanada zavqlantiradi. O'quvchilarim Yangi yilni yaxshi kayfiyatda kutib olishdi. Sinf sardori Shohsanam Mahmudjonova boshchiligida yangi yilda bundan-da yaxshi o'qishga, odobli o'quvchi bo'lishga so'z berdilar. Men ham va'damda turdim va ularni bolalar shaharchasiga tomoshaga olib keldim.

– Qorbobodan sovg'a oldim, – deydi Shayxontohur tumanidagi 85-maktabning 3-«A» sinf o'quvchisi O'g'iloy SOBITOVA.



EZGU NIYATLAR BILAN

«Shaharcha»dan qaytayotgan Ruxsora Abdullayevani suhbatga tortdik.

– Men poytaxtdagi 186-maktabning 4-«V» sinfidagi o'qiyman. Yonimdagi ukalarim Komiljon va Foziljon esa Toshkent viloyatidan mehmon bo'lib kelishgan. Ular 32-maktabda o'qishadi. Bizga katta archa juda yoqdi. U balandligi, ko'rkamligi, chiroyli bezaklari bilan boshqa archalardan farq qiladi. Biz yangi yilni yangi orzular bilan kutib oldik. Qishki ta'til esa sarguzashlarga boy bo'ldi.

Feruza SOYIBJON qizi yozib oldi

«O'zbekiston» nashriyat-matbaa ijodiy uyida ham korxonada ishchi-xizmatchilarining farzandlari uchun Yangi yil bazmi o'tkazildi. Bolajonlar archa atrofida aylanib, o'zlarining ezgu tilaklarini bildirishdi. Quvnoq she'r va qo'shiqlar aytib, yig'ilganlarni xushnud etishdi. Bayramda biz ham qatnashib, ularning quvonchiga sherik bo'ldik. Bolalarning orzu-o'ylari bilan qiziqdik.

Abduazim G'aniyev hozircha bog'chaga qatnaydi. «Kim bo'lmoqchisan?» degan savolimizga, posbon bo'laman, degan burro-burro javobidan hamma zavqlanib ketdi.

Bezkod Qahhorov bank xodimi, Jamshid Qambarov esa zo'r futbolchi bo'lish orzusida ekan. Shuning uchun maktabda a'lo baholarga o'qishyapti. Ularning ism-shariflarini yon daftarchamizga muhrlab qo'ydik. Shoyad, bu nomlarni kuni kelib, butun dunyo e'tirof etsa.

Yangi yilda qanday ezgu niyat qilsang, ijobat bo'ladi, deyishadi. Orzularingiz amalga oshsin, beg'ubor ukajonlar!

Fayzullo DO'ST

ISMLARINI YOZIB QO'YDIK



Zuhra Muhsimova olgan surat

Qishki ta'tilning gashti o'zgacha-da! Ikkinchi chorakni yakunlab, ham ta'tilni, ham Yangi yilni kutib olishga nima yetsin?! Ayniqsa, ta'til kunlari sevimli ertak qahramonlari, Qorbobo va Qorqiz bilan uchrashib, archa atrofida qo'shiq aytishning zavqi bo'lakcha. Bu yil ham bolajonlar ta'til kunlarida sira zericmadilar. Ota-onalari bilan Mustaqillik maydonidagi «Bolalar shaharchasi»ga tashrif buyurgan o'g'il-qizlar Shum bola, Zumrad va Qimmat, Ayiqpolvon, Tulki, Quyonchalar bilan suratga ham tushib oldilar.



Archa yonida suratga tushgan Ravshanbekning aytishicha, u ota-onasi bilan ataylab Buxoro shahridan kelibdi.

– Oynayi jahon orqali bu baland va go'zal archani ko'rganimda dadamlardan shaharchaga olib borishlarini iltimos qildim, – dedi u quvonchini yashirmay. – Dadajonim choragimni «4» va «5» baholar bilan tamomlaganim uchun iltimosimga yo'q demadilar. Mana sevimli archam atrofida suratga tushdim.

Xuddi Ravshanbekka o'xshab uzoq masofalarni pisand qilmay kelgan bolajonlar quvnoq qo'shiqlarga raqsga tushishdi. Qorbobo va Qorqiz aytgan topishmoqlarni bir-birlariga navbat bermay, javob berishlari ularning topag'onliklaridan dalolat.

GULYUZ

Ustozlarimiz yozadilar



BIZNING HAM O'RNIMIZ BOR

Farg'ona viloyatining Qo'shtepa tumanida joylashgan I-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internatimizda o'quvchilarning davr talablari asosida ta'lim-tarbiya olishlari uchun barcha sharoitlar mavjud. Yoshlarimizning bilimlarni puxta egallashlari, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun bor imkoniyatlarni ishga solyapmiz. Tarkibiga 22 nafar iqtidorli o'qituvchini jamlagan ahil jamoamiz zimmalaridagi vazifani sharafla bilan uddalamoqdalar. Shuningdek, Farg'ona davlat universiteti dotsentlar Ergashxon Azizov, Ilhomjon Xolbekov o'quvchilarimizga oliy dargohlar talabi darajasida

bilim berib kelishyapti.

Ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligi, asosan, mustaqil hayotga yo'llanma olgan maktab bitiruvchilarining keyingi taqdirida yaqqol namoyon bo'ladi. Shu o'rinda, 430 nafar o'quvchimizning oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotganliklari ko'nglimizni charog'on etadi. Bu muvaffaqiyatlar o'z-o'zidan kelmagan, albatta. Uning zahirida ustoz-o'qituvchilarning zahmatlari, yotibdi. Chunonchi, o'tgan o'quv yilida fan olimpiadalarning uchinchi bosqichiga yo'llanma olgan 20 nafar o'quvchilarimizning viloyat bosqichida tumanimiz sharafini himoya qilib, g'oliblik shohsupasining yuqori pog'onalaridan joy olganliklari ham sidqidildan qilingan mehnatining samarasi, deb bilaman.

Mazkur yilimizning davlatimiz rahbari tomonidan «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» deb e'lon qilinishi, ta'lim sohasida boshlagan xayrli ishlarimizning amalga oshishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Yusufjon ROZIQOV,

O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi, Farg'ona viloyati,
Qo'shtepa tumanidagi 1-sonli maktab-internat direktori

Sog'lom bo'lay desangiz...

Imkoniyatlar eshigi

Biz yoshlar ozod va obod diyorda yashab, ilmi, sog'lom bo'lib, ota-onamiz, Vatanimiz oldidagi burchimizni ado etib, yurtga sodiq farzand bo'lishga intilamiz. Afsuski, yoshlarimiz orasida shunday baxtli va farovon zamonda yashash, o'qish, mehnat qilish, xalqiga foyda keltirish o'rniga ichish, chekish, giyohvand moddalarni qabul qilish orqali o'z ko'ksiga tig' sanchib, umrini qisqartirayotganlar ham yo'q emas. Oqibatda, qalb ko'zlari ko'rligi bois hayot go'zalliklarini ko'rolmay, azoblar girdobida qolmoqdalar. Insonning ruhiy mukammallikka erishuvi o'z qo'lidadir, ya'ni har kim taqdirini o'zi yaratadi.

Aziz tengdoshlar, hayot shu qadar go'zalki, biz buni har lahzada his etib yashashimiz lozim.

Elvira TURSUNNAZAROVA,
Navoiy viloyati «Kelajak press»
yoshlar matbuot markazi a'zosi



Ma'naviyat gulshaniga sayr

Yurtimizda Yangi yil bayrami shukhi keziy yurgan kunlarda maktabimizda o'tkazilayotgan ochiq darslar, to'garak mashg'ulotlari bayram tadbirlariga ulanmoqda. Jumladan, 7-sinf-larda «Ma'naviyat gulshani

niga sayr» mavzusidagi ochiq dars multimediyasi asosida tashkil etildi. Bundan tashqari o'quvchilar kichik sahna ko'rinishi namoyish etib, mustaqillik davrida ma'naviyatimizga berilgan e'tibor natijasida buyuk siymolarimizning pok nomlari oqlanib, ular tomonidan yaratilgan asarlar xalqimizning nodir durdonasiga aylandi.

Jumladan, Imom al-Buxoriyning hadisi shariflari multimediyasi asosida qo'yib berildi. O'quvchilar o'zlarini bilgan hadislardan yod aytishdi. Dars

davomida olgan bilimlarini mustahkamlab, test sinovlariga javob berishdi.

Maktabning ilg'or o'qituvchisi Melixon Sharipova tomonidan tashkil qilingan mashg'ulot mazmunli va qiziqarli o'tildi. Jahon tillari universitetining tarix fakulteti kafedra mudirasi, professor Dilorom Bobojonova darsdan olgan taassurotlari bilan o'rtoqlashib, o'quvchilarni ajdodlarimizga munosib farzand bo'lishga da'vat etdilar.

Shuningdek, odobnoma fani o'qituvchilaridan Sapura Sulaymonova, Klara Muzaffarova, Vasila Rahimova, Feruza Abdiyeva va Muborak Mirxodjayeva tomonidan ham ochiq darslar tashkil etildi.



Sitora MENGLIYEVA, poytaxtdagi 59-sonli davlat umumta'lim ixtisoslashtirilgan maktabining oliy toifali ona tili yoa adabiyot fani o'qituvchisi

«Qizil chirog'im qani?» maqolasini o'qib...

Mening fikrim

Gazetaning 44-sonida «Qizil chirog'im qani?» maqolasini o'qib, shunday xulosaga keldim:

Bolalarning «qizil chiroqlar»i – aqli doimo ishlab turishi kerak.

Bunday bolalar o'zlarini tutishi, gap-so'zlari bilan boshqalarga o'rnak bo'lishadi.

Ularni hamma hurmat qiladi. Biz qiz bolalar «qizil chirog'i» yo'q bolalarni ko'pam yaxshi ko'rmaymiz. Chunki, bunday bolalar qizlarning sochidan tortishadi, kitoblarini yashirib qo'yishadi. Tanaffusda sinfda yugurishadi. O'qituvchisining tanbehleri bu qulog'idan kirib, unisidan chiqib ketadi.

Ulardagi to'polonchilik virusi boshqa bolalarga ham yuqib qolmasligi uchun tangdoshlari ulardan o'zlarini olib qochishadi.

Men hamma bolalarning «qizil chirog'i» – aqli bo'lishni juda-juda istayman.

Dilbar PRIMOVA, yosh muxbirimiz



SHE'R YOZIB TURAMAN

Hurmatli «Tong yulduzi» gazetasi ijodkorlari! Men gazetaning har bir sonini sevib o'qiyman. Adabiyotga qiziqishim tufayli qo'lmdan kelganicha she'rlar va hikoyalar yozib turaman. «Yurtim navosi», «Beg'ubor lahzalar» nomli she'riy va qatralar to'plamlarim chop etildi. Sizlarga ham she'rlarimdan namunalarni yuboryapman, ularga befarq bo'lmay sizlar, degan umiddaman.

QUSHLAR

Ufqdan bosh ko'tarar quyosh,
Mayin esar tongning sabosi.
Eshitlar chug'ur-chug'ur,
Qushlarning sho'x-shodon navosi.

Kabutarlar tinchlik kuyini,
Ich-ichidan kuylaydi mudom.
Quv nab uchib, yurtda tinchlikni,
Dildan bizga so'ylaydi mudom.

Bedanajon nechun bezovta,
Bog'in obod ko'rmoqlik istar.
Kaklikning ham niyati xolis –
Dunyo tinchin o'ylaydi do'stlar.

Baxt kuychisi bulbuljonning ham,
Navolari ko'kka taralgay.
Barcha qushlar jo'r bo'lsa agar,
Bir ajoyib qo'shiq yaralar.

Husniya QURBONNAZAROVA,
Surxondaryo viloyati,
Angor tumanidagi
35-maktabning 7-sinf o'quvchisi



Aziz o'quvchilar, payqadingizmi, «Quvnoq tanaffus»ingiz bir necha oy ko'rinmay qoldi. «Sahifabop xanda-yu hangomalar yo'qdir-da», deysizmi? Yo'q, bunday mazmundagi maktublar serob. Biz faqat bu sahifani o'qib boryapsizmi, u Sizga ma'qul bo'lyaptimi, yo'qmi, shuni bilmogchi edik, xolos.

Ma'lum bo'lishicha, sahifamizning muxlislari juda ko'p ekan. Buni tahririyatimizga kelgan maktublar mazmunidan, shuningdek, maktablardagi uchrashuvlar paytida o'quvchilarning o'zlaridan bilib oldik va behad mamnun bo'ldik. Yangi yilda sahifamiz katta tanaffusda doimiy hamrohingiz bo'lishiga so'z beramiz.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Bundan ko'p yillar avval bir olma daraxti bo'lgan ekan. Uning atrofida hech qanday daraxt ham, butalar ham yo'q ekan.

Bir kuni olmaning shoxlariga bir gala chumchuqlar kelib qo'nishibdi. Chug'urchug'ur qilishib, shoxdan-shoxga uchib-qo'nib, urushishibdi, yarashishibdi, xullas, olmaning endigina meva tugayotgan gullarini to'kib, «pir» etib uchib ketishibdi. Bu holdan ranjigan olma shoxlariga qarasa, bitta jajji chumchuq o'tirganmish.

– I-ye, sen nega uchib ketmading? – so'rabdi undan olma.

– Men sen bilan do'st tutinish uchun qoldim. Qarasam, yon-atrofigda hech qanday daraxt yo'q ekan, – deya javob beribdi chumchuq.

– Hademay yoz ham tugab, kuz, ketidan qish keladi. Men barglarimni to'kib, qishki uyquga ketaman. Yol'g'iz o'zing zerikib qolasan-ku. Do'stlaringni ham topolmay



qolasan, – debdi olma.

Lekin chumchuqcha hech qayerga ketmadi. Do'stlar yozni quvnoq va soz o'tkazishibdi. Kuz eshik qoqib, havo sovib, daraxtlar barglarini to'ka boshlabdi. Birgina olma daraxti barglarini to'kmabdi. Havo esa xuddi o'chakishgandek sovigandan soviy bordi. Chumchuqcha sovqotib qolmasin,

deya barglarini ham to'kmadi, qishki uyquga ham ketmadi. Nihoyat qish ham kelibdi. Izg'irinli shamol esib, qor gupillab yog'ibdi. Daraxtning yarim tanasi muzlay boshlabdi. Shunda ham taslim bo'lmabdi, chumchuqchani barglariga o'rab, ayozdan himoya qilibdi. Kunlar biroz ilib, bahorga yetay deb qolganda daraxt nobud bo'libdi...

Bahor kelibdi, maysalar sabza urib, daraxtlar gullabdi. Birgina olma daraxti gullamabdi. Chunki uni sovuq urib ketgan ekan. Shunday bo'lsa-da, chumchuqcha do'stlari bilan kelib, qurigan shoxlariga qo'nib, to daraxtning tanasi chiriguncha uni tark etmabdi.

Ko'rdingizmi, chin do'stlar og'ir kunlarda ham birga bo'lishadi.

Maftuna HUSANOVA,
Qashqadaryo viloyati, Kitob
tumanidagi 20-umumta'lim maktabi
o'quvchisi



QIZIQARLI MASALALAR

1. Uch nafar baliqchi daryoga baliq ovlagani borishdi. Ular jami 64 dona baliq tutishdi. Birinchi baliqchi tutgan baliqlar soni ikkinchisidan 12 ta kam, uchinchi baliqchidan esa 2 barobar kam. Savol: Kim qancha baliq tutgan?

2. Uch xonali son 7 raqami bilan boshlanadi. Berilgan sonda 7 raqamini oxiriga qo'yish bilan berilgan son 117 ga kamayadi. Hosil bo'lgan sonni toping?

DEHQON BOBOM

Dehqon bobom yil bo'yi, Ishlaydi tinim bilmay. Polizlarni oralar, Bir kun ham kanda qilmay.

Bosvoldi, kampirchopon, Handalakmas, bol yeymiz. –Endi qishda miriqib, Bobo, dam oling, deymiz.

Aziza JUMAYEVA,
Samarqand viloyati, Ishtixon
tumanidagi 2-son iqtidorli
bolalar maktabining
4-sinf o'quvchisi



TOPISHMOQLAR

Oyog'i yo'q, qo'li yo'q,
Shoshib chopib chiqar u.
Ona zamin bag'ridan,
Salom olib chiqar u.



Olmasang yarim nafas,
Yo'ldan o'tgani qo'ymas.

Hilola VALIYEVA,
Qashqadaryo viloyati,
Shahrisabz tumanidagi
98-umumta'lim maktabining
6-«B» sinf o'quvchisi



Ramazon Qo'rg'onov
Jizzax viloyati, Forish
tumanidagi 59-maktab-
ning 6-«A» sinfida

o'qiydi. Rasm chizish – tasviriy

san'atga kichik yoshidanoq mehr qo'ygan tengdoshingizning eng sevimli mashg'uloti. Rasmlarining mavzusi esa rang-barang: tabiat mavzusi, ertak qahramonlari...

Ramazon qishki ta'til kunlarida chizgan rasmlaridan bir nechtasini bizga ilinibdi. Ular sizga ham ma'qul bo'ladi, degan umiddamiz.



ERKALASHLAR

Ajdar, devlar bolasin,
Ushog'im, deb erkalar.
Ajdar, Devim demasdan,
Yumshog'im, deb erkalar.

Yovuzligi yo'qolgan,
Zahari ham, tishi yo'q.
Endi ajdar, devlarning
Biron yomon ishi yo'q.

Bir oila bolasi
Arslonim, deb erkalar.
Aslo ra'yin qaytarmas,
Qoplonim, deb erkalar.

Nimjongina bolasi
Arslon misol tashlanar,
Har kun yotish oldidan
To's-to'polon boshlanar.

TUSHIMDA QUSH
KO'RDIM

Bir ajib tush ko'rdim,
Yelkamda qush ko'rdim.
Yurakdan yoqtirdim,
Men uni xush ko'rdim.

Patlari jiloli,
Qanoti tilloli.
Edi yuz maqomda
Boqishi jilvali.

Bir sirli o'ynardi,
Bir sirli yayrardi.
Sehrlı ohangda
Bir shirin sayrardi.

Ilhomda yondi u.
Gapimga ko'ndi u,
Baxt qushi ekanmi,
Boshimga qo'ndi u.



Qambar ota:

«Bir ajib tush ko'rdim»

ZO'R NE'MAT

Suvda o'sgan ekinim,
Yuraginga yaqinim.
Zo'r ne'matsan, ulug'vor.
Sening ikki noming bor.

Sholisan-u guruchsan,
To'yimlisan, zo'r kuchsani.
Pishsang palovto'rasan,
E'zoz gashtin surasan.

EHTIYOT BO'LING!

Mahkam bog'lang shoxidan
Haddan oshgan buqani.
Sudrab keling, bo'shshamang,
Shoxi o'sgan takani.

Shoxi bo'lgan jonivorni
Shoxlamas, deb o'ylamang.
Shoxlariga ishongan
Shoxdor bilan o'ynamang!

BULBULJON

Buncha shirin ovozing,
Bulbuljon!
Vatanda yangrar sozing,
Bulbuljon.
Kuylaganda yonasan,
Bulbuljon.
Yurt ishqida qonasan.
Bulbuljon.
Chamaningda yayrab kul,
Bulbuljon.
Quvvat olsin har bir dil,
Bulbuljon.
Gulday Vatan qalbingda,
Bulbuljon.
Mangu omon bag'ringda,
Bulbuljon.
Dilda sadoqatingdan,
Bulbuljon.
Baxt quch saodatingdan,
Bulbuljon.

TO'RG'AY QO'SHIG'I

To'rg'ayman-o, to'rg'ayman,
Cho'l gashtini surgayman.
Oftobda g'am yemasman,
Soyaparvar emasman.

Quyosh yonar, qaynayman,
Nur qo'ynida yayrayman.
Olov ichra o'ynayman,
O'tli qo'shiq kuylayman.

Umrim yashnar mardona,
Chanqash menga begona.
Tolmay, kuylab yonaman,
Qo'shig'imdan qonaman.

To'rg'ayman-o, to'rg'ayman
Cho'l gashtini surgayman.
Nurni sevgan zo'r qushman,
Yer-u ko'kda hur qushman.



Tong pallasi shamol aralash o'ynoqlab laylak qor yog'di. Quyosh chiqqanida qorparchalari yerni oqartirib qo'ygan edi. Ko'p vaqt o'tmasdan qor bosgan yo'laklar qoraya boshladi. Kimdir ishga, kimdir o'qishga shoshilganicha, qorlarni toptab o'tardi. Qorning beg'ubor parchalari oyoq tagida ezilib yotardi. Laylak qorlar ichida shunday bir go'zal qorparchasi bor ediki, uning suratini musavvirlar ham chizolmasdi. Yuksak qoyalarda o'sgan mag'rur archalarning shoxlariga bezak edi u. Taqdir taqozosimi yoki tasodifmi, shiddatli bo'ron zabtiga qarshilik ko'rsatolmasdan shu yerlarga uchib kelgandi. Baxtiga yo'lakning chekkasiga tushgani uchun qadamlar xavfidan biroz yiroq edi. Ammo bu unga xotirjamlik berolmasdi. Bir necha soatlar oldin bunday noxush holatga tushib qolishini tasavvur ham qilmagandi. O'z holiga xo'rliqli kelib turganida, yonginasiga bir qush kelib qo'ndi. U qushga zorlangancha murojaat qildi:

– Tog'lar ustidan uchib o'tganingni ko'rganman. Sen yuksaklik qadrini bilguvchisan. Hozir men oyoq ostida toptalib, iflos ko'lmachga aylanib qolishim mumkin. Iltimos, meni o'z makonimga olib ket!

– Tumshuqlarimda olib ketay, desam nafasimda erib ketasan. Seni shu chiroyli holingda saqlab turishning sira iloji yo'q. Meni kechir, yordam berolmaganimdan afsusdaman, – deya qush qanotlarini qoqqanicha ko'kka uchib ketdi.

Qorparchaning ko'zlariga yosh keldi, nega uning qanotlari yo'q ekan-a? Qanotlari bo'lsaydi, o'zining qorli cho'qqilariga uchib ketmasmidi, mahobatli archaning yaprog'iga zeb bo'lmasmidi?

Shu orada yengilgina shabada qo'zg'aldi. Bu mayin epkin qorparchaning yuragida yana umid

uyg'otdi. Hali orzusiga yetish imkoni borligini his qildi va shabadaning etaklaridan mahkam tutib iltijo qildi.

– Sen menga qayta jon ato etganday bo'lding. Meni etaklarimga qoyalar bag'riga elta olasanmi? Tubanlikda qolib, yo'qlik qa'riga singib ketishni xohlamayman. Iltimos, menga yordam ber!



– Nadomatlar bo'lsinki, men ham ojiz bir shabadaman. Seni qayta osmon-u falakka uchirishga faqat kuchli bo'rongina qodir. Zarracha imkonim bo'lsa, senday go'zal mo'jizani bu yerlarga tashlab ketmas edim, – deya shabada ko'zdan g'oyib bo'libdi.

– Qani endi u ham shabada kabi yengil harakatlanolsa, shunda unga loqayd qadamlar xavf solmasmidi?! Armonlar iskanjasida chorasiz qolmagan bo'larmidi?

Shabadaning ortidan mayda-mayda oq bulutlar keldi. Qorparcha so'nggi ilinji bo'lgan bulutlarga boqdi va dedi:

– Asli men ham osmondan tushgan edim, yana osmonga qaytgim kelayapti. Erib bitishimga oz fursat qoldi, orzularimga yetolmay, begona joylarda erib izziz bo'lishni istamayman. Oppoq, parday yengil bulutlar, menga yordam beringlar!

– Biz hozir ummonga yo'l oldik. Tabiat qonunlariga qarshi borolmaymiz. Ummondan to'yinamiz va yana ona yerga qaytamiz. Bizning yo'llarimiz butunlay boshqa...

Bechora qorparcha astoydil intildi, lekin cho'qqilarga chiqishga yo'l topolmadi. Intilishlari shu qadar kuchli ediki, ohi quyoshga yetib bordi. Quyosh bor nurlari bilan qizdirdi-yu, uni eritib, par hoida osmon-u falakka ko'tardi. Parga aylangan qorparchasi ayni yangi yil kechasida o'sha cho'qqilar bag'ridagi eng mag'rur archaga yulduz bo'lib qo'ndi.

Unga ato etilgan joy barcha qorparchalaridan yuksakroq, o'zi esa hammasidan go'zalroq edi...

– U qayerda ekan-a? – deya biroz hayratingiz oshdimi?! Nahotki, dorixonalarda dorilar bepul tarqatilyotgan bo'lsa, deya avvaliga bizning-da qiziqishimiz ortdi. Savolimizga javob topish umidida O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti tomon yo'l oldik. Tibbiyot fanlari nomzodi, institut katta o'qituvchisi Umida opa VAFOQULOVA: nahotki, dori-darmonlarsiz shifo topishning iloji bo'lsa? – deb so'ragan edik:

DORI-DARMONLAR – BEPUL ...

– Iloji borligini isbotlab beraymi? – dedilar ishonch bilan.

Bolalar, keling, Umida opaning hikoyasiga quloq solaylik-chi,



mutaxassis opamiz bizga nimalarni so'zlab berar ekanlar.

– Bugungi kunda yurtimizda 387 ta stadion, 6411 ta sport zallari mavjud. Ularda muntazam jismoniy tarbiya va sport bilan 7.578.163 nafar insonlar shug'ullanadilar. Quvonarlisi, bularning 3.380.472 nafari ayollardir. Ularning orasida O'zbekiston terma jamoasi safidan o'rin egallagan va nufuzli xalqaro musobaqalarda medallarni qo'lga kiritgan qizlarimiz soni ko'pchilikni tashkil etadi. O'tgan yillar davomida Qatarning Doha shahrida bo'lib o'tgan XV Osiyo o'yinlarida mamlakatimiz terma jamoasi 39 ta medal bilan yurtga qaytishdi. Ular orasida 13 nafar sportchi opalarningizning borligi o'shanda barchani behad quvontirgandi. Afinada bo'lib o'tgan Olimpiada o'yinlarida esa 70 nafar sportchining 18 nafari yana

chaqqon va epchil sportchi opalaringiz ekanligini ham bilib qo'ying.

– Aytinchi, Umida opa, yildan-yilga Osiyo va jahon Olimpiadalarida sportchi qizlarimizning safi kengayib borishining sababi nimada, deb o'ylaysiz?



nafar qizlarimiz da'vogar bo'lishdi. Ayni kunda ularning erishayotgan yutuqlaridan ustozlari mamnun. Eng asosiysi, sportchi qizlarimiz allaqachon to'g'ri kun tartibiga rioya qilishni, badantarbiya mashqlaridan erinmaslikni, jismoniy harakatning foydasi bebaholigini anglab yetganlar.

Menimcha, sport va badantarbiya mashqlari insonni tetik va baquvvat qiladi. Shundaygina biz dori-darmonlarga sira ehtiyoj sezmaymiz.

G'OLIBA

– Qizlarimizning yuqori shohsupalarga chiqayotganlariga sabab yurtimizda ular uchun yaratilyotgan imkoniyatlar, e'tibor samarasi, deb bilaman.

– Siz faoliyat yuritayotgan dargohda qizlar sportiga bo'lgan e'tibor haqida ham gapirib o'tsangiz?

– Prezidentimiz yana bir xayrli ishni boshlab berdilar. Qizlarni institutimizga qabul qilishda katta imkoniyatlar, qulayliklar yaratildi. 1988-1992-yillarda sportchi qizlar soni 53 nafari tashkil etgan bo'lsa, mustaqillik yillarida bu ko'rsatgich 257 nafarga ko'paydi. Hujjatlarni qabul qilish paytida esa 221 o'ringa 815



YO'LNI O'ZI

Sportchilar ko'payib ketdi...

Qayerda, deysizmi? Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanidagi 24-maktabda! Sababi, bu maskanda jismoniy tarbiya o'qituvchilarining ko'pligi-da, ayniqsa, tajribali jismoniy tarbiya o'qituvchilaridan Hakim Toshev, Baxtiyor Metliyev, Javlon Primov, Muzaffar Bo'ronov kabi ustozlar sportning voleybol, qo'l to'pi, basketbol, stol tennisi turlari bo'yicha o'zaro musobaqalarning tashkilotchilari bo'libgina qolmay, doimiy ishtirokchilariga ham aylanishdi. Ular vaqt bilan hisoblashishmaydi, doim maktabdalar. Darsdan keyin sport turlari bo'yicha muntazam mashg'ulotlar, bellashuvlar o'tkazishadi.

Maktablararo musobaqalarda toblangan bolalar ayni damda tuman hamda viloyat musobaqalariga yo'l olishdi.

Agar tumanimiz o'qituvchilari va o'quvchilari bilan bellashmoqchi bo'lsangiz, qorli kunlarda ham sizning mezboningiz bo'lamiz. Chunki, maktabimizda havas qilgudek katta sport zalimiz bor. Eng muhimi, sportdek chin do'stimiz bor.

Xudoyberdi NAZAROV,
Qarshi tumani



Shamsiddin betakror Surxon vohasining bolasi. U bir kuni karate haqida kinofilm ko'rib qoldi-yu, sportga havasi ortdi. Fikrini chalg'itmay, tezda uylari yaqinidagi karate klubiga bordi. Mashg'ulotlarga muntazam qatnashni odat qildi. Hozir tengdoshingiz Termiz shahridagi 9-maktabning 7-sinfida tahsil olayotgan Shamsiddin Raisov viloyat va respublika musobaqalarida yuqori shohsupalar tomon intilmoqda. Har bir bellashuv uni chempionlik sirlaridan ogoh etadi. G'oliblik sari talpinayotgan tirishqoq bu bolakayning orzulariga havas qilsa arziydi. O'n ikki yoshga to'lgan Shamsiddin shu kungacha 20 ga yaqin yirik musobaqalarda ishtirok etishga muvaffaq bo'ldi. Tinimsiz mashqlari, o'z ustida ishlashlari uni xalqaro maydonlarga yetaklashiga shubhamiz yo'q. Negaki, bu mashqatli va sharafliligi yo'lni uning o'zi tanladi.

Sirojiddin IBROHIMOV,
Surxondaryo viloyati, «Sherobod»
gazetasi muxbiri



T
A
N
L
A
D



O'ZINGNI SINAB KO'R!

1. Parijda

«Tovuqning chap oyog'ini» nomli maxsus kafe bo'lgan. Kafe doimo xo'randalar bilan gavjum edi. Ular tovuqning chap oyog'ini tanovul qilishni xush ko'rishgan. Nima uchun?

Mantiqan o'ylab ko'ring-chi nima uchun kafeda faqat tovuqning chap oyog'i berilgan?

2. «Lizing» nima?

Ingliz tilidan so'zma-so'z tarjima qilganda, «ajara», yoki «ajara olmoq» ma'nosini beradi. Davom ettirib yoki izlanib ko'ring-chi, bu to'g'rida o'zingiz nima bilasiz? Mabodo, bizga bu to'g'risida yozib yuborishga qiyinlasangiz, fermer akalarimizdan so'rab, bilib oling.

3. - Aka, konus nima degani? - so'radi Jalil akasidan.

- Hm, konus deganimi?! - Jalil ukasiga o'z bilganicha tushuntirdi:

- Qo'l fonarining yorug'ini esla: uning nuri icfkaridagi lampochkasidan chiqib, tobora kengaygan holda tarqaladi. Chelak, piyola, kosalar ham shunga o'xshash, ya'ni kesik konus shaklidir.

Jalilning javobi to'g'rimi?



- Mening burnim oyim-nikiga, ko'zim dadamnikiga o'xshaydi, - dedi Vilgelm.

- Mening peshonam - buvimniki, qulog'im - amakimniki! - dedi Toto.

- Mening kiyib yurgan ishtonim - akamniki! - deya maqtandi uchinchi bola.

- Rene, alfavitni bilasanmi?
- Ha, dada, albatta, bilaman.
- Ayt-chi, «A»dan keyin qaysi harflar keladi?

- Qolganlari-da!..

KULGIXONA



SHIRINSO'ZLIK



Shirinso'zlik. Bu so'z zamirida qanchadan-qancha ma'no bor. «Bu hikmatda gap ko'p», deydi donolar. Haqiqatan ham, shirinso'z inson hayot dengizidan durlar teradi, ikki og'iz shirin so'z bilan kimnidir qorong'i dilini munavvar aylab, yana qaysi bir yo'ldan adashganni yomon niyatlaridan qaytarishga muvaffaq bo'ladi. Yana ikki og'iz shirin so'z bilan bu dunyo tashvishlaridan charchagan insonni yashashga qaytarishi, uni yangi ishlarga ilhomlantirishi mumkin.

Tajang, muomalasi qo'pol, so'zi sovuq odamlarning kamchiliklarini yuziga solsangiz, do'stona pand-nasihatdan qochib, dilingizni siyoh qilishadi yoki asabim chatoq deb o'zlarini oqlashga urinishadi. Asab kasalligini vaqtda davolash zarurki, aks holda, u tanada yayrab, umrga zavol yetkazishi mumkin.

Inson tabiati juda nozik, u gulga o'xshaydi. Salgina sovuq yashnab turgan gulni nobud qilganidek, jinday dag'allik ham inson ko'ngil oynasini sindiradi.

Yaxshi gap ham, yomon gap ham bir og'izdan chiqadi.

Bir so'z bilan har kishi

O'zligini ko'rsatar.

So'z gavhurin ko'pincha

Dono olar, ko'r sotar!

Yangi yilda barchamizga
shirin so'z yor bo'lsin!

Sevara HAYITOVA

Ona Sayyorada ob-havo asrlar davomida turlicha kechgan.

Masalan:
1186-yilda
Yevropada



qish iliq kelgan va yanvar oyida daraxtlar gullagan.

1228-yilning aprelida G'arbiy Yevropada uzumlar muddatidan oldin gullagan.

1232-yilda Germaniyada yoz juda issiq kelgan va qumda ko'milgan tuxum pishib qolgan.

922-yilda Amudaryo qalin muz bilan qoplangan.

1210-yilda Venetsiyada muzlagan kanallar ustidan ot-aravalarda bemaol o'tib qaytishgan.

O'QUVCHI YON'DAFTARIGA

Men mazkur rukn ostida berilayotgan qaydlarni o'qib, juda katta taassurot olmoq-daman. Yangi yilda ham bu ajoyib ruknni davom ettiringlar.

Murodjon,
Samarqand viloyati.

TARIX O'RMONIDA ADASHIB QOLMANG!

Xitoy solumalarini ilk bor o'qigan kishi juda ko'p manbaalarni tushunmasligi mumkin, ayniqsa, joy nomlarini yanglishtirib yuborishi aniq. Masalan, ular:

samarqandliklarni - Kang,
buxoroliklarni - An,
farg'onaliklarni - Sao,
zarafshonliklarni - Mi deb ataganlar.
Toshkentdan Xitoyga borganlarni-chi?

Ularga Shi familiyasini berganlar.



HALI HECH NARSA BILMAYMIZ

Hozirgi kungacha osmon jismlarining, xususan, Yer sharimizning ham qanday kuchlar hisobiga harakatlanishi haqida hech qanday kitob ham, maxsus gipoteza ham yo'q. Shunday ekan, insonning maqtanishi ortiqcha!

BOBUR MIRZONING NOMA'LUM QO'LYOZMASI

Bolalar!

Zahiriddin Muhammad Boburning Tehron universiteti kutubxonasida o'g'li Humoyunga atab yozgan asari saqlanayotgan bo'lib, unda «Astronomiya fani haqida», «Yerni o'lchash», «Arifmetika qoidalari» degan bo'limlar bor ekan.

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,

«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,

«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin
SHOYODGOROV,
Olovuddin
ORIPVO
Navbatchilar:
Gulyuz ORIFJONOVA,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08

Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»

NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.

Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.

ISSN 2010-6092
Adadi - 65453
Buyurtma N: J 868